

TA'LIMNI DASTURIY VOSITALARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Norova Fazilat Fayzulloyevna

*Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi
(Buxoro, O'zbekiston)*

ARTICLE INFO.

Ключевые слова: ta'lim, dasturiy vosita, metod, axborot, kasbiy mahorat, shaxsiy kompyuter, mediata'lim, ta'lim darajasi, ta'lim sifati.

Аннотация

Maqolada ta'limni dasturiy vositalari yordamida rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ta'lim, shu jumladan oliy ta'lim muassasalari ta'lim darajasi va sifati mamlakat taraqqiyoti – uning iqtisodiyoti, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, mazkur yurtda yashaydigan insonlarning turmush darajasi, ijtimoiy yutuqlarini belgilaydi. Mamlakatimizda bo'lganidek eng yaxshi deb hisoblagan ta'lim darajasi aholining ijtimoiy, huquqiy hayot darajasi, kommunikatsion savodliligi, ta'lim olishga qiziqishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Ta'lim darajasi va sifati ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchining shaxsiy sifatleri va kasbiy mahoratigagina emas, balki, aynan ta'lim tizimining asoslariga ham bog'liq bo'ladi.

Ta'limning rivojlanish yo'li fanlar sonining va o'rganiladigan mavzularning ortishi hisobiga olinadigan bilimlar bilan kengayishi mumkin. Fanlar sonini kengaytirish, talabalarga yuklamalarni ko'paytirish bilangina emas, balki o'qituvchi-pedagoglarning o'zlari ta'lim berayotgan fanlariga har tomonlama va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda saboq berishlari uchun ularning malakalarini oshirib borish ham muhim omildir.

Ta'limni rivojlantirishning — intensiv yo'li, birinchidan, ta'lim metodini o'zgartirishni, qo'shimcha bilim berish yo'llarini izlashni talab etadi. Axborotlar bilan mustaqil ishlashni bilish, topish, anglab yetish va nihoyat mavjud axborotlar asosida yangi bilimlarni uyg'unlashtirishni bilish, mana shu o'quv jarayonini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'li bo'lishi mumkin. Mana shunday yondashuvda ta'lim olish jarayoni markazining tayyor, to'g'ri ma'lumotlar olish va ularni yodlab olishdan axborotni izlash, qayta ishlab chiqish va bir shakldan boshqa shaklga aylantirish ko'nikmalarini egallashga yo'nalish sodir bo'ladi. Zamonaviy talabalarning bilim olish manbalarini kuzatadigan bo'lsak, unda o'qituvchi eng muhim manba bo'lib qolayotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan ungagina muhim rol — o'quvchiga aniq bir fan bo'yicha bilim berish, klassifikatsiyalash, o'zgartirish tizimini berish roli yuklatiladi. Har bir fan bo'yicha mazmunli qadriyatli yo'nalishlar tizimini yaratish va o'quvchiga yetkazish — o'qituvchining eng asosiy funksiyasi hisoblanadi va shunday bo'lib qolmoqda.

Keyingi vaqtda, shaxsiy kompyuterlardan keng foydalanish bilan internet va maxsus o'quv kompyuter dasturlari orqali bilim olish keng rivojlanmoqda. Internet manбайдan olingan bilimlar ishonchligini baholashni talab qiladi. Axborot olish manbalariga ishonch masalasi o'qitishning an'anaviy metodlarida

umuman muhokama qilinmaydi. Internet va ommaviy axborot vositalarining ta'lim tizimi, o'quvchi va o'qituvchilar dunyoqarashiga ta'siri haqida ko'plab fikrlar mavjud. Darslik va dasturlar mualliflarining, muxbirlar hamda sharhlovchilar va boshqalarning bilib yoki bilmay yo'l qo'ygan kamchiliklari borliqni to'g'ri anglashda ta'sir ko'rsata oladi.

Turli axborot olish manbalarini haqiqiy o'quv jarayoniga kiritish, ushbu bilim manbalariga ishonchni baholash, boshqa, yanada ishonchli manbalarni topa bilish talabalarning mustaqil ishlashga qiziqishlarining o'sishiga olib kelishi kerak. Turli manbalardan olingan bilimlarni solishtirish va umumlashtirish, ularni ijodiy qayta ishlab chiqishni bilish ham juda muhim bo'lib hisoblanadi. Ba'zan bilimlar sinovi sifatida taklif etiladigan o'quvchining tanlangan mavzu bo'yicha referat tayyorlash o'rniga (referat nima, uni yozish qoidalari, referatlar bilan to'g'ri ishlash uchun boshqa zarur ma'lumotlar maktab dasturi doirasida o'rganilmaydi) va oqibatda, odatda internetdan topilgan tayyor referatlarni oddiy ko'chirib olish sodir bo'ladi. O'z fikrini ifoda etish va bayon etish o'rniga o'quvchi boshqalarning fikrlarini ko'chirib olib va anglab yetmagan holda o'zinikidek ko'rsatish bilan almashtiriladi.

Faqat turli axborot manbalari bilan ishlash sohasida maxsus metodik ishlanmalar, shu jumladan, texnik vositalar (kompyuter, televizor va boshqalar)da taqdim etilgan materiallar yordamida mana shu kabi muammolarning oldini olish mumkin. Ushbu yo'nalishda ta'lim bilan birlashtirilgan mediata'lim sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli maktab fanlari bilan birlashtirilgan mediata'lim standartini ishlab chiqish — katta axborot muhitida pedagoglar va talabalarni hayotga tayyorlashda katta, ahamiyatli hissa hisoblanadi. Mediata'lim maqsadlari quyidagi ko'rinishda ifoda etiladi:

- ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o'rgatish; ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o'zgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;
- maktabdan tashqari axborotlarni umumiy tayanch ta'lim mazmunida fan sohasidagi bilim va malakalarda shakllantiriladigan tizimga kiritish;
- talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish.

Ushbu vazifalar ikki o'zaro bog'liq bo'lgan sohalarda tadqiqotchilik va amaliy ishlar: bir tomondan, maktab dasturi fanlarini o'qitish sohasidagi metodik ishlar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi metodik ishlar olib borilishini ko'zda tutadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq vazifalar guruhi maktab dasturi tayanch fanlaridan alohida ekanligi va texnik vositalardan to'g'ri foydalanish malakasini talab etishi tushunarli holdir. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash zamonaviy maktabda ta'lim samaradorligini oshirish muhim yo'llaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining va demak, ularni ta'minlash texnik vositalarining ahamiyatli roli, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tan olingan rivojlanishi omili sifatida va bunga shubha yo'q.

O'qituvchi va o'quvchi zamonaviy axborot texnik va texnologik imkoniyatlarini qayerda va qanday o'rganishi kerak? Ushbu masalalarni hal etishda «Informatika» fani asos bo'lib qolmoqda. Zamonaviy informatikaning roli va o'rnini faqat hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash texnik vositalari va metodlarini o'zlashtirishdan iborat deb hisoblab bo'lmaydi. Umuman, informatikani texnik ta'minlashni faqat kompyuterlar bilan chegaralash to'g'ri emas. Zamonaviy dunyoning axborot muhiti boshqa texnik vositalardan, masalan, televizorlar va videomagnitofonlar, foto va videokameralar, telefon apparatlari va ko'plab boshqalar ham foydalanadi.

Texnika bilan ishlash qoidalarini, turli qurilmalarning o'zaro bog'liqliklarini va kompleks foydalanishni o'rganish, axborot bilan va uni qayta ishlash texnik vositalari bilan ishlashda huquqiy maydonini bilish

- «Informatika» fanining ajralmas qismi hisoblanadi.

Informatikaning rivojlanishi va uning metodlari hamda modellarining deyarli barcha maktab fanlariga asta-sekin uzviy kirib borishi anʼanaviy kurslar tuzilishining oʻzgarishiga olib keladi. Oʻqituvchining fan haqida tizimli tasavvurining «loyihachisi» sifatidagi roli qoladi va yanada ortib boradi, lekin shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlari hajmi ham ortib borishi kerak, bunda oʻqituvchi yoʻnaltiruvchi va maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

Talabalarning mustaqil ishlari texnika va tegishli texnologiyalardan ommaviy foydalanishni koʻzda tutadi. Shunda agar oʻquvchi informatika mashgʻulotlarida turli manbalar va maʼlumotlarni qayta ishlash texnologik qoidalari bilan ishlash tayanch koʻnikmalarini olsalar, fan oʻqituvchisi ushbu masalalarni hal etishga eʼtiborni kuchaytirishi kerak, «Pedagogik dasturiy vositalar» mashgʻulotida talabalarning olgan bilim va malakalarini oʻz predmeti sohasida qoʻllashi mumkin.

Shu tariqa, oʻquvchi axborotni izlaydi, anglab yetadi, oʻzgartiradi; koʻplab texnika manbalaridan foydalanib, shunday ishlarni tez, sifatli bajarish imkonini beradi; oʻqituvchi talabalarning olgan bilimlarini umumlashtiradi, tizimlashtiradi, ularning ishlarini boshqaradi, yoʻnaltiradi, yordam koʻrsatadi, tuzatib boradi.

Xulosa qilib aytganda, taʼlim jarayoni shunday tashkil etilganda, texnik vositalar mustaqil ahamiyatga ega boʻladi, texnik vositalar uning toʻla huquqli tarkibiy qismi boʻlib qoladi. Texnik vositalardan foydalanish har bir oʻquvchiga individual yondashuvni taʼminlashi va turli darajadagi murakkablikka ega topshiriqlarni ishlab chiqish, individual qobiliyati hamda tayyorgarligiga qarab bir mashgʻulot doirasida turli talabalarga taklif etishni taʼminlashi mumkin boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Pozilova "Pedagogik dasturiy vositalar" oʻquv qoʻllanma. Toshkent 2019. -161 b.
2. Imomova Shafolat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna. Taʼlim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish// Miasto Przyszłości, Vol. 32 (2023), C.47-49.
3. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(103), 2022. С. 30-32.
4. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
5. Imamova Shafolat Mahmudovna. A SIMULATION TRAINER'S EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE// INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.